

**TEMURIYLAR TARIXIDA “OLTIN BESHIK” VOQEASINING O‘RNI
(IBRATNING “TARIXI FARG‘ONA” ASARI MISOLIDA FALSAFIY
TAHLIL)**

Abdullaxo‘jayev Adxamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li

Qo‘qon universiteti falsafa fanlari o‘qituvchisi

tel: +998 90 362 91 41

adhamxojaabdullaxojayev@gmail.com

Turkiston uyg‘onish davri-jadidchilikning yorqin vakili Ibrat tomonidan yozilgan “Tarixi Farg‘ona” asari Farg‘ona vodiysining qadim va boy o‘tmishini tasvirlab bergan tarixiy asar sanaladi. Is’hoqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona” asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e’tibor beradi. Shuningdek, muallif Ho‘qandi latifda bir davlat bino bo‘lishining afsonaviy -tarixiy asoslarini ham keltirib o‘tadi. Xo‘qand xonlarini(ng) ibtidosi “Oltin beshik” deb nomlangan bo‘lib u «Ta’rix Shohruxiy»da bayon qiladur. Davlatning tashkil etilishida bosh bo‘lgan sarkorlar Temuriylar shajarasiga oid avlodlardan sanaladi. Hali shahar tashkil etilmasdan avvaloq, Mavorounnahrda kechgan toj-taxt uchun keskin kurashga kirib kelgan yosh Bobur ibn Umarshayx milliy davlat chegaralarini mustahkamlash va uni idora usullarini o‘zgartirib boshqarishga harchad urinmasin, mavjud siyosiy vaziyat uni mamlakatdan chetga chiqib ketishini taqozo etdi. Ul vaqtda Xo‘qand yo‘q, atrofda Tirg‘ov degan va Chinkat degan va Saroy qishloqlari bo‘lub, Tirg‘ovda bir mudabbir kishi bu xalq ni(ng) xonzodasi bo‘lmasa inqiyod qilmasliklarini bilib, o‘shal vaqtda Andijon xonlaridan Boburxon ibn Umarshayxni(ng) Andijondan ketib turgan vaqti ekan. Xo‘qand o‘sha davrda hali shakllanmagan bo‘lib, atrofida Tirg‘ov, Chinkat va Saroy kabi qishloqlar mavjud bo‘lgan. Tirg‘ovda yashovchi bir mudabbir (qaror qabul qiluvchi yoki fikr bildiruvchi) kishi, o‘z xalqining xonzodasi (yoki hukmdor avlodidan) bo‘lmagan shaxsning bu yerda hukmronlik qilmasligini aytgan. Bu, ehtimol, o‘sha davrda hukmdorlikning meros sifatida o‘tishi, avloddan-avlodga o‘tishining muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Andijon hukmdori Bobur ibn Umarshayxning Andijondan ketayotgan vaqti haqida fikr bildirish juda o‘rinli. Boburxonning Andijon hududida yuz berayotgan siyosiy va ijtimoiy inqiroz yoki tahdidlardan chekinib, boshqa joylarga (shu jumladan, Xo‘qand atrofiga) ketishi tarixiy voqea sifatida keltirilgan. Bu voqea, Xo‘qand va uning atrofidagi hududlardagi siyosiy vaziyatni, Boburdan avvalgi va keyingi hukmdorlar davridagi o‘zgarishlarni yoritadi. Xo‘qand shahrining tashkil topishi va uning keyinchalik yirik siyosiy markazga aylanishi tarixida Boburxonning roli muhim sanaladi.

Ul kishi o‘z oilasidan bir bachasi va bir marziai g‘abiyni necha xil oltun va kumushlar bilan tazyin qilib, aning beshiklarini kimxob va atlaslarg‘a o‘rab, Boburxonni(ng) qochub o‘tub turgon yerig‘a maxfiy tashlab, anga posbonlar qo‘yub, tofub olmoq uchun bo‘lak xalqlarni(ng) muoyana bilmaki lozim. Necha kundan so‘ng uch

qishloqdin suv ochmoq uchun odamlar chiqqanda hammalari beshikni ko‘rub, birdan talash qilib, oxiri ichlaridan birisi chek qilmoq bo‘lganda uch taqsim qilib, chek solib, be shik saroyliklarga, yovug‘lari chinkatliklarga, bola Tirg‘ovga tushganda, har qaysilari o‘z cheklariga tushgan ni marsalarni olib ketib, bolani tirg‘ovaliklar tarbiyat qilib, ani(ng) otini Oltun beshik deb, andin necha qarn o‘tub avvali to‘qquz yuz o‘n to‘qqizinchi hijriydan Oltun beshikdan Shohruxxon o‘rtasi ikki yuz yildan ziyodaroq o‘tub, o‘n ato bilan bir ming bir yuz yigirmanchi sanasi Shohruxxon julus etib, mufassal yozilib kelgan ta’rix lari ham bor edi. Boburxonga (Bobur ibn Umarshayx) nisbatan bir maxfiy xatti-harakatlar haqida so‘z boradi. Boburxon o‘z oilasi bilan Andijondan qochib, xavfli vaziyatdan qochishga majbur bo‘lganida, Oltin beshikni (bu bolaga alohida e’tibor qaratilgan maxsus beshik) maxfiy tarzda yashiringan. Oltin beshikni qishloqlarga tashlab, uni to‘g‘ri tarbiyalash uchun odamlar o‘rtasida adalatli taqsimlashni amalga oshirishgan. Beshikning tarqatilishi va talashilishi, xalqning e’tiborini jalb qilgan va oxir-oqibat bu bolani o‘z hududlarida tarbiyalashni boshlashgan. Oltun beshik, Xo‘qand xonligining tashkil topishida, xonzoda va uning hukmronligini ramziy tarzda belgilaydi. Bu beshikni bolaga taqsimlash orqali, uning merosi va kelajagi ta’minlanadi. Beshikning atrofida odamlar uni o‘zining muhim ramzi sifatida qabul qilishadi. Beshikni olib ketgan kishilar, bolani tarbiyalashni o‘z zimmlariga olishgan. Oltun beshik orqali bolaga alohida bir e’tibor, hurmat va tarbiya berilgan. Unga "Oltun beshik" deb nom berilgan, bu esa shaxsiy va siyosiy ahamiyatni anglatadi. Bu jarayon tarixiy ma’lumotlarga muvofiq, Shohruxxonning taxtga chiqishi va uning boshqaruvi davrida Xo‘qandning rivojlanishini tasvirlaydi. Shohruxxon davrida Xo‘qand poytaxtga aylangan va bu voqea xonlikning kuchayishi va rivojlanishini bildiradi. Shohruxxonga qadar Xo‘qandning o‘ziga xos bir siyosiy rivojlanish jarayoni bo‘lib, u xonlarning naslidan kelgan va tarixda muhim ahamiyat kasb etgan. Xalq orasida Oltun beshikning katta ta’siri bo‘lgan. Bu beshik Xo‘qand xalqining o‘z tarixiy merosiga, xonzodalarga bo‘lgan hurmatining bir ifodasi sifatida qabul qilingan. Shohruxxonning taxtga o‘tirishi va Xo‘qandda davlatni rivojlantirishi, Oltun beshikning tarixiy rolini yanada kuchaytirgan. Taxtgohlari Xo‘qand shahri bo‘lub, maz kur nasldan yigirma sakkiz zot taxtga o‘lturub, Shahri xondan yuqorisi biy isminda, andin quyisi xon ismi ni olmishdurlar. Bularni(ng) oxiri Xudoyorxon o‘lub, ani aqabinda bir-ikki zoti besabot xon ismini ko‘torub, 1292- nchi sana Xo‘qand shahri Rusiya davlatiga o‘tgandan so‘ng biri ma’zul va bir necha qundan so‘ng biri maqtul 1293- nchi sanasinda xon ismi Farg‘onadan ma’dum va dav latlari noma’lum o‘lub, jam’i hukumatlari uch yuz yetmish to‘rt yilga yetkandur. Xo‘qand xonlarining o‘ziga xos tarixini ko‘rsatadi. Xo‘qand xonligida yigirma sakkizta xon o‘z taxtiga o‘tirgan, bu Xo‘qandning uzoq tarixiy davr davomida bir necha hukmdorlar tomonidan boshqarilganini anglatadi. Bu Oltun beshikni(ng) xalqg‘a xonzoda ekanin ravshan qilmoqsa necha ilova so‘zlar qo‘shu lub, bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan,

kiyik emizub turgan ekan va qush soya solgan ekan, deb xalq ni(ng) qulog'ig'a o'rnatub, to angacha yigit bo'lub, hurma ti va ehsoni ziyoda bo'lub, xushaxloq va xushmuruvvat bo'lsa ham Tirg'ova qishlog'idan bo'lak xalq inqiyod qilmay, har qaysi jamoada bir biy bo'lub kelsa ham, Oltun beshik ni(ng) biylik'i shuhratliroq bo'lub, mundan olti avlod bu suratda o'tub, yettinchi avlodiga kelganda bul kishi boniyi Xo'qand bo'lub, Shahmastbiy ismini xon laqabi ga chiqorub, nihoyatda so'zi nufuzli bo'lub, xon ismini rivojlatib, Shohruxxon deb shuhrat tofgan ekan. Mun din muqaddam ixtilof etsalar ham Shohruxxon asrida xonlik shuhrati butun bo'lub, Xo'qand poytaxt o'lub, o'zi dan hazrati Odamg'acha nasabini isbot qilub, muassisi saltanat bo'lub, ajdodi xavoqini Xo'qand katta muaassai tibyon bo'lgan ekan. Oltun beshikning tug'ilishi ajoyib voqealar bilan bog'lanadi. Bolaning boshida bulut soya qilgani, kiyik uni emizgani va qush soya solgani kabi ramziy tasvirlar uning kelajakdagi buyukligi va xalq uchun muhim shaxs bo'lishining alomati sifatida ko'rsatiladi. Bu tasvirlar insonning tabiat bilan uyg'unligi va unga yuqori kuchlar tomonidan homiylik qilinishi haqida gapiradi. Bu falsafiy jihatdan insonning tabiat va ilohiy kuchlar bilan bog'liqligini, shuningdek, buyuklik va obro'ning ma'naviy asoslarini anglatadi. Oltun beshikning avlodlari ham uning izidan borib, xalq orasida obro' qozonishda davom etishadi. Bu avlodlarning har biri o'z davrida xalq uchun yetakchi rol o'ynaydi. Bu insoniyatning davomiyligi, avlodlar orasidagi bilim, tajriba va ma'naviy qadriyatlarning uzatilishi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, bu insonning o'z avlodlari uchun iz qoldirish istagi va ma'naviy merosning ahamiyatini ko'rsatadi. Shohruxxon davrida Xo'qand xonligi eng yuqori cho'qqiga chiqadi. Uning hukmronligi davrida xonlikning shuhrati butun bo'lib, Xo'qand poytaxtga aylanadi. Bu falsafiy jihatdan hokimiyat, adolat va ma'muriy tizimning muvaffaqiyati haqida gapiradi. Shohruxxonning nasabini hazrati Odamgacha bog'lashi uning hukmronligining qadimiyligi va ma'naviy asosliligi haqida dalolat beradi. Bu insonning o'z ildizlarini bilishi va ularga nisbatan mas'uliyat hissi haqida ham fikr yuritadi. o'qandning katta muassasa sifatida qayd etilishi uning tarixiy va madaniy ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu falsafiy jihatdan tarix, madaniyat va merosning insoniyat uchun ahamiyati haqida fikr yuritadi. Tarix nafaqat o'tmishni eslash, balki kelajakni qurish uchun ham asos bo'ladi. Xo'qand xonligining tashkil topishi va rivojlanishi tarixiy jarayonlarning murakkabligi, shuningdek, avlodlar orasidagi bilim, tajriba va ma'naviy qadriyatlarning uzatilishini ko'rsatadi. Oltun beshik ramzi orqali tarixiy merosning davomiyligi va uning xalq uchun ma'naviy ahamiyati ta'kidlanadi. Hokimiyat nafaqat kuch va qudratga, balki adolat, donolik va xalqning ishonchiga asoslangan bo'lishi kerak. Asarda Shohruxxonning shuhrati uning adolatli va xalqparvar hukmdor ekanligini ko'rsatadi. Xo'qand xonligining rivojlanishi va shuhrat qozonishi hokimiyatning ma'naviy jihatlari bilan bog'liq. Oltun beshikning tug'ilishi ajoyib voqealar bilan bog'liqdir. Bu tasvirlar insonning tabiat bilan uyg'unligi va unga yuqori

kuchlar tomonidan homiylik qilinishi hamohang sanaladi. Bu falsafiy jihatdan insonning tabiat va ilohiy kuchlar bilan bog‘liqligini, shuningdek, buyuklik va obro‘ning ma‘naviy asoslarini anglatadi. Boburxonning Andijondan chiqib ketishi va Xo‘qand atrofidagi hududlarda siyosiy vaziyatning o‘zgarishi siyosiy inqirozlar va ularning oqibatlari "Tarixi Farg‘ona" asar bir qancha tarixiy faktlar beriladi. Jumladan, bu jarayonlar davlatning qayta tiklanishi va yangi hokimiyat shakllanishining muhim jihatlarini ko‘rsatishi bilan ahamiyatga molikdir. Oltun beshik voqeasi orqali xalqning ma‘naviy qadriyatlari yuksaltirish, tarixiy shaxs va arboblarga nisbatan hurmat va e‘tiborni kuchaytirish, zamoaviy bilimlarga ega yosh avlod qalbida vatanga muhabbat, adolat, insof va muruvvat singari axloqiy kategoriyalarini shakllanishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu insoniy qadriyatlarning hokimiyatni qanday shakllantirishi va uni qanday saqlab qolishi haqidagi tarixiyva asotiry hodisalar bilam chabarchas bog‘likligini ko‘rsatadi. "Tarixi Farg‘ona" asari Farg‘ona vodiysi va Xo‘qand xonligining boy tarixi, ma‘naviy qadriyatlari va siyosiy jarayonlari chuqur o‘rganishda beqiyos o‘ringa ega. Asarda tarix, meros, hokimiyat, ma‘naviyat va tabiat bilan bog‘liqlik kabi muhim mavzular atroflicha yoritilgan. Bu esa, inson o‘z tarixiy ildizlarini bilishi, ma‘naviy qadriyatlarni saqlashi va kelajakni qurishda tarixdan saboq olishi lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat. Farg‘ona tarixi. Tanlangan asarlar. / Nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi, izoh va lug‘at mualliflari U.Dolimov, N.Jabborov. –T.: Ma‘naviyat, 2005.–B. 105
2. U.Dolimov. Mohir Mublisist, matbaachinoshir.<https://yuz.uz/uz/news/mohir-publitsist-matbaachi-va-noshir>
3. A.Abdullaxo‘jayev. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat faoliyatiga ijtimoiy-falsafiy nazar. Interpretation and researches, 2024.
4. Abdullaxo‘jayev, A., & Abdullayeva, D. (2024). Ta‘lim modernizatsiyasining falsafiy–huquqiy tahlili. Science Promotion, 49-52.
5. Isaqova, Z., & Abdullaxo‘jayev, A. (2024). Ibratning Turkistonda Kadrlar
6. Abdullaxo‘jayev, A. (2024). Ibrat-Haqiqiy Ibrat Maktabi. Nordic_Press,
7. Abdullaxo‘Jayev, A. J. (2024). O ‘zbekistonda Gender Tengligining